

MORFEMIKA MORFEMANING BIR QISMI SIFATIDA.

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti

521-guruhan talabalari

Abdumurodova Muattar

Abdushukurova Sevara

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning muhim bo'limlaridan biri bo'lgan "Morfemika" bo'limi haqida hamda uning tuzilishi nimalardan iborat ekanligi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Morfemika, morfema, o'zak morfema, affiks morfema, so'z yasovchi affikslar.

Morfemika tilshunoslikning so'zning eng kichik ma'noli qismlarini - morfemalarni o'rjanuvchi bo'limi sanaladi. Morfemika bo'limi va uning o'rjanish obyekti haqida tilshunoslikda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Y.Tojiyev, A.Hojiyev, A.G'ulomov, O.Qosimxo'jayeva, T.Mirzaqulov, R.Sayfullayeva, Sh.Rahmatullayev, A.Nurmonov va boshqa bir qator olimlar tomonidan ushbu bo'lim doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan, turli fikr-mulohazalar bayon qilingan. A.G.,ulomov, A.Tixonov va R.Qung.,urovlar tomonidan "O'zbek tilining morfem lug'ati" (1977-yil) tuzilib, nashr etilgan

So'zning eng kichik ma'noli qismlari morfemalar deyiladi. Shu o'rinda "ma'noli qism" degan tushuncha ham nisbiy bo'lib, so'z tarkibini tashkil etuvchi asos va qo'shimcha morfemalar har doim ham mustaqil ma'no bildirmaydi. Asos sifatida ot, sifat, son, ravish, fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar qo'llansa, bunday qism tilda mustaqil ishlatalishi, yakka holatda lug'aviy ma'noga ega bo'lishi, so'zning keyingi ma'nosi uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin: osh+-paz, yansh+-cha, bir+-lik, ishon+-ch; bel+bog' rohat+baxsh, bir+oz, mehnat+qilmoq. Agar asos sifatida olmosh, undov so'zlar, taqlid so'zlar, modal so'zlardan foydalanilsa, garchi bu qism tilda mustaqil til birligi sifatida qo'llansada, atash

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ma“nosiga ega bo,,lmaydi. Bundan tashqari, qo’shimcha morfemalar ham mustaqil holatda hech qanday ma’noga ega emas, ular so’zga qo’shilgandan keyingina o’zi birikayotgan qismga ma’lum bir ma’no yuklashga xizmat qiladi. Masalan, “vatandosh” so’zi tarkibidagi -dosh qismi vatan so’ziga birikib, vatanda birga yashaydigan shaxs ma’nosini, “kitobim” so’zidagi -im qismi esa asosda anglashilgan predmetning so’zlovchiga tegishli ekanligini, “daraxtlar” so’zi tarkibidagi -lar asosdan anglashilgan predmetning birdan ortiq ekanligini, “otajon” so’zi tarkibidagi -jon birligi hissiy-ta’siri bo’yoq (masalan, erkalanish) ifodalashga xizmat qilgan.Demak, “manoli qism” deganda har doim ham qismlarning atash ma’no (lug’aviy ma’no) anglatishini emas, balki grammatik va uslubiy ma’no ifodalashini ham tushunish maqsadga muvofiq bo’ladi. Demak, so’z tarkibidagi har bir qism o’z o’rnida yo leksik, yo grammatik, yoki uslubiy ma’noga ega ekan, demak, asosni ham, qo’shimchani ham morfema deyish maqsadga muvofiq bo’ladi. Shuningdek, bir asosli so’zlar ham atash ma’nosidan tashqari yana ayrim grammatik ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi, ya’ni maxsus ko’rsatkichga ega bo’lmagan grammatik ma’nolarni ham ifodalay oladi. Masalan, “kitob” so’zi o’quv qurolining bir turi ekanligini anglatuvchi atash ma’nosiga ega bo’lishdan tashqari bosh kelishik va birlik ma’nolarini ham maxsus ko’rsatkichsiz (deylik, nol morfema) ifodalamoqda. Demak, bir asosli so’zlar ham so’z shakli sifatida morfema deb olinishi o’rinli bo’ladi.

Yuqorida aytganimizdek, “Ozbek tilining morfem lug’ati” yaratilgan. O’rganishlar shuni ko’rsatadiki, mavjud lug’atda o’zbek tiliga yangi kirib kelayotgan yoki taraqqiyot natijasida hosil bo’layotgan aksariyat til birliklari morfem tarkibi aks ettirilmagan: raqamlashtirish, modernizatsiyalashtirish, changyutgich kabi. Undan tashqari, aksariyat so’zlar lug’at yaratilgan davrga mos holatda rus tilida berilgan, vaholanki bugungi kunda biz uning aynan o’zbekcha muqobilini qo’llamoqdamiz: biblioteka, bibliotekachi, vigovor, otchyon, protokol, medsestra, moment va boshq. Yana bir jihat shundaki, mazkur lug’atda ayrim so’zlarning tarkibini ajratishda yo tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashilgan, yoki

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rus tili imkoniyatlaridan kelib chiqib, aynan o'sha tildagi kabi qismlarga bo'lingan: kommun/al, modifik/atsiya, nov/ator, mun/aq/a, nav/bahor, nav/ro,,z, namo/yanda, ne/ga/dir va boshq. Bir yuqorida sanab o'tgan holatlarga muvofiq kelydigan o,,rinlar ham talaygina. Morfemika mavzusiga aloqador mulohazalarimizni bayon etarkanmiz, "O'zbek tilining morfem lug'ati"ni davr talabidan kelib chiqib, tahrirtalab o,,rinlarini tuzatgan holda qayta nashrga tayyorlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Demak, morfemika bo,,limiga oid tadqiqotlarni davom ettirish, ularni zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, bahsli o'rirlarga aniqlik kiritish, mavjud kamchiliklarni tuzatish – bugungi kunning davr talabidir

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati

1. Azim Hojiyev. O'zbek tili morfologiysi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. _Toshkent, 2010.
2. Shavkat Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. – Toshkent, 2006.
3. R.Sayfullayeva va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. 4.
- U.Tursunov va boshq. O'zbek tilining morfem lug'ati. – Toshkent, 1977.
5. Xayrullayev.X. Об особенностях изучения объекта речевой лингвистики. Иностранный филология: язык, литература, образование. 2019 г. (2 (71), 17–20. https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/921 6. I.A. Xaydarova. Phonemic structure of morphemes in modern uzbek language. Toshkent, 2021. <https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/3167>